



O'zbekiston Respublikasi Ta'limni rivojlantirish
respublika ilmiy-metodik markazi

INKLYUZIV TA'LIM – FARQ EMAS, IMKONIYATLAR MUHIM

Giyasova Sh.K. Samarqand viloyati Pedagogik mahorat
markazi boshlang'ich ta'lim metodisti




INSONNING HUQUQLARIGA ASOSLANGAN

Inklyuziv ta'lim barcha bolalarning sifatli ta'lim olish huquqiga asoslanadi.

Bu huquq xalqaro va milliy huquqiy hujjatlar, jumladan:

- Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, 1948-yil
- BMTning Bola huquqlari to'g'risidagi konventsiyasi, 1989-yil
- BMTning Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konventsiyasi, 2006-yil

O'zbekistonda inklyuziv ta'limni tashkil etishning normativ-huquqiy asoslari



Inklyuziya (inglizcha: inclusion – “o‘z ichiga olish”) – bu barcha bolalarga, qanday farqlari (qobiliyati, etnik kelib chiqishi, holati va h.k.) bo‘lishidan qat’i nazar, teng huquqli va samarali ta’lim olish imkoniyatini yaratish tamoyilidir.

Inklyuziv ta’lim — barcha o‘quvchilar uchun maxsus ta’lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning farqliligini inobatga olgan holda ta’lim muassasalarida ilm olishda teng huquqlilikni ta’minlashdir. Bolalarning qobiliyatlaridan va holatidan qat’iy nazar ularning barchasiga sifatli ta’lim taqdim etilishi kerak.



INKLYUZIYANING ASOSIY MA'NOSI VA TAMOYILLARI

1. **Har qanday farqni qabul qilish:** Bolalar nogironligi, oilaviy holati, irqi, til yoki iqtisodiy ahvolidan qat'i nazar, bir xil ta'lim muassasasida o'qiydilar.



2. **Individual yondashuv:** Har bir bola o'ziga xos ehtiyojlari va qobiliyatlariga ega. Inklyuziv ta'limda har bir bolaning o'ziga xos dasturi bo'ladi va o'qituvchilar har bir bolaga uning darajasiga mos keladigan topshiriqlar berishadi.

3. **Ijtimoiy integratsiya:** Inklyuziyaning asosiy maqsadi – bolalarni akademik bilimlar bilan ta'minlashdan ko'ra, ularni jamiyatga to'liq integratsiya qilish, ularning ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirish va o'zini qadrli his qilish hissini uyg'otishdir.



4. **Fizik va psixologik barqaror muhit:** Barcha bolalar qulay sharoitda o'qishlari uchun maktab binosi jihozlangan, darsliklar va o'quv materiallari har xil ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun moslashtirilgan.

“EKOLOGIK DETEKTIV” DIDAKTIK O‘YINI (TABIY SAVODXONLIK + O‘QISH SAVODXONLIGI + MATEMATIKA)

Maqsad: Kavsatchanlikni, ekologik ongini, ma’lumot bilan ishlash va oddiy masalalarni yechish qobiliyatini rivojlantirish.

O‘yin jarayoni: O‘qituvchi hikoya qiladi: "O‘rmonda barcha mevalar yo‘qolib qolgan! Biz aybni topishimiz kerak".

Sinf detektivlar guruhlariga bo‘linadi. Har bir guruh "ish" – kartochkalar to‘plamini oladi.

Kartochka 1. (Tabiiy savodxonlik): O'rmondagi hayvonlar (ayiq, to'ng'iz, qushlar) va ularning ovqatlanishi tavsifi. Kim mevalarni yeb qo'ygani aniqlanishi kerak



Kartochka 2. (O'qish savodxonligi): O'rmon haqidagi hikoya yoki she'rdan parcha, unda maslahat bor (masalan, "Ayiqlar shirinxo'r, malinani yaxshi ko'radi")

Kartochka 3. (Matematika): Masala. "Agar bir joyda 50 ta meva, ikkinchisida 3 baravar kam o'sgan bo'lsa va ularning barchasi yeb tashlangan bo'lsa, jami nechta meva yo'qolgan?" (Javob "dalil" olishga yordam beradi).



**ESHITISHDA MUAMMOSI
BO'LGAN**



**HARAKAT IMKONIYATI
CHEKLANGAN**

**AQLIY FAOLIYATI YENGIL
DARAJADAGI
MUAMMOLAR**


**KO'RISHIDA
MUAMMOSI
BO'LGAN**




**TA'LIMNI O'QUVCHILARNING
IMKONIYATLARIGA YO'NALTIRISH**



MAKTAB DASTURINI O'ZLASHTIRA OLMAGAN MASHHUR IQTIDORLI INSONLAR



Albert Eynshteyn
1879-1955



Charlz Darvin
1809-1882




Alfred Adler
1870-1937

AUTISTIK SPEKTRDA BUZILISHI BOR MASHHURLAR



Bill Geyts




**Avraam
Linkoln**




Ilon Mask


RUHIY RIVOJLANISHIDA BUZILISHI BOR MASHHURLAR



Kira Naytli



Tom Kruz



Genri Ford

Stiven Xoking

**Nikolas Jeyms
Vujich**

Elen Keller



“TO‘RT BURCHAK” MUHOKAMASI

Inklyuziv ta’lim kim uchun eng muhim va foydali?

- 1-burchak: Ota-onalar uchun
- 2-burchak: Nogiron bolalar uchun
- 3-burchak: O‘qituvchilar uchun
- 4-burchak: Jamiyat uchun

Burchakni tanlash




Muhokama



Argumentatsiyasi



INKLYUZIV TA'LIMNING AFZALLIKLARI



15%

Dunyo aholisining
qariyb 10%da(16)
nogironlikning bir turi
mavjud.

Inklyuziv maktablardagi
nogironligi bo'lmagan
o'quvchilarning

59%

matematika ko'rsatkichlari
bo'yicha oddiy maktablardagi
tengdoshlaridan ustun
turadi.

**Inklyuziv ta'limda barcha bolalar, nogironligi bor va nogironligi
bo'lmagan bolalar foyda ko'radi.**

XULOSA

Inklyuziya – bu nafaqat ta'lim tizimi, balki falsafa va hayot tarzidir. U har bir insonning qadri va unga bo'lgan hurmat asosida qurilgan bo'lib, nafaqat bolalarga, balki butun jamiyatga yaxshiroq va bag'rikeng kelajak yaratishga xizmat qiladi.

Inklyuziv ta'lim muhiti
barcha o'quvchilar uchun
teng imkoniyatlar yaratadi va
ularning salohiyatini to'liq
ro'yobga chiqarishga yordam
beradi.





E'TIBORINGIZ UCHUN RAHMAT!